

**METHODS OF DEVELOPING THE THINKING OF PRIMARY STUDENTS
THROUGH STORIES****Amonov Hasan**

1st year master's student of Samarkand State Pedagogical Institute

Abstract

This article analyzes the role and influence of the narrative genre in the development of students' thinking. Narratives, as a short, concise and deeply meaningful form of folk oral art, help to develop logical thinking, understanding of cause-and-effect relationships, independent conclusions and creative thinking in students. The study highlights the methods of using narratives in the educational process, their moral and educational content and didactic opportunities for activating students' analytical thinking. It also shows the importance of using narratives in the educational process in increasing motivation, forming aesthetic taste and instilling national and spiritual values.

Keywords

narrative, thinking, student, logical thinking, creativity, folk oral literature, education, spiritual values, imagination, motivation, educational process.

Annotatsiya

Ushbu maqolada rivoyat janrining o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni va ta'siri tahlil qilinadi. Rivoyatlar xalq og'zaki ijodining qisqa, lo'nda va chuqur ma'no kasb etuvchi shakli sifatida o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, sabab–natija bog'liqliklarini anglash, mustaqil xulosa chiqarish hamda ijodiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda rivoyatlarning o'quv jarayonida qo'llanish metodlari, ularning axloqiy-tarbiyaviy mazmuni hamda o'quvchilarning tahliliy fikrlashini faollashtirishdagi didaktik imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, rivoyatlardan foydalanishning ta'lim jarayonida motivatsiyani oshirish, estetik didni shakllantirish va milliy-ma'naviy qadriyatlarni singdirishdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar

rivoyat, tafakkur, o'quvchi, mantiqiy fikrlash, ijodkorlik, xalq og'zaki ijodi, tarbiya, ma'naviy qadriyatlar, tasavvur, motivatsiya, ta'lim jarayoni.

Аннотация

В статье анализируется роль и влияние жанра повествования на развитие мышления учащихся. Повествование как краткая, лаконичная и содержательная форма народного устного творчества способствует формированию у учащихся логического мышления, понимания причинно-следственных связей, самостоятельности умозаключений и творческого мышления. В исследовании освещаются методы использования жанров повествования в образовательном процессе, их нравственно-воспитательное содержание и дидактические возможности для активизации аналитического мышления учащихся. Также показано значение использования повествований в образовательном процессе для повышения мотивации, формирования эстетического вкуса и привития национально-духовных ценностей.

Ключевые слова

повествование, мышление, ученик, логическое мышление, творчество, устное народное творчество, воспитание, духовные ценности, воображение, мотивация, образовательный процесс.

Bugungi jadal rivojlanayotgan texnika asrida o'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirish, shuningdek, madaniy merosimiz haqida chuqur tasavvur hosil qildirish bugungi kun o'qituvchilarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu vazifa nafaqat maktab, balki ota-ona, mahalla va jamiyatning har bir a'zosi zimmasidagi mas'uliyatdir. Ana shunday mas'uliyatni his etgan insonlar yosh avlodni izlanuvchan, mehr-oqibatli, yurtsevar, elparvar hamda yangicha fikrlaydigan shaxslar qilib tarbiyalashga o'z hissalarini qo'shadilar. Bu jarayonda ota-bobolarimiz donishmandligining badiiy ifodasi bo'lgan rivoyatlarning o'rni alohida ahamiyatga ega.

O'zbek xalq rivoyatlarida ajdodlarimizning hayotiy tajribasi, badiiy mahorati hamda dunyoqarashi o'z ifodasini topgan. Rivoyatlar o'ziga xos didaktik xususiyatlari, mazmunining chuqurligi, badiiyligi va ifoda uslubi bilan ajralib turadi. Ularda ajdodlarimizning ibratli hayot yo'li, sharqona milliy qadriyatlar, odob-axloq qoidalari, yaxshilik, vatanparvarlik va odamiylik kabi insonni komillikka undovchi g'oyalar aks etadi. Shu sababli rivoyatlar yosh avlod uchun qiziqarli va muhim tarbiyaviy manba hisoblanadi. Rivoyatlarni yosh avlod qalbi uchun go'yo donishmandlik maktabi, hayot saboqlarini o'rgatuvchi manba sifatida baholash mumkin.

Umuman olganda, bola tarbiyasida rivoyatlarning roli juda katta. Qadim zamonlardan buyon o'zbek oilalarida bolalar katta yoshdagilar tomonidan hikoya qilib berilgan turli rivoyatlarni eshitib ulg'ayganlar. Momo va bobolarimiz aytib bergan rivoyatlar bolalarni to'g'ri yo'lga boshlashga xizmat qilgan. Chunki rivoyatlar didaktik ahamiyatga ega bo'lib, bolalarning olam va hayot haqidagi tasavvurini kengaytirishda, ularning qalbida ezgu fazilatlarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bugungi kunda milliy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor kuchayib borayotgan bir paytda xalq merosini yosh avlod ongiga singdirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Bolalar ulg'aygan sari momo-bobolaridan eshitgan rivoyatlarni o'zlaridan kichik uka-singillariga aytib berishga intiladilar. Shu orqali ular kichiklarni aqlli, vazmin bo'lishga, o'jar va injiq xatti-harakatlardan voz kechishga undaydilar. Bu jarayonda ular o'zlarini kichik tarbiyachi sifatida tutishga harakat qiladilar. Rivoyatlar orqali bolalarning tafakkuri kengayib, ularda insoniy fazilatlarni shakllana boradi.

Boshlang'ich sinf o'qish darsliklarida ham rivoyatlardan keng foydalaniladi. Masalan, 4-sinf o'qish kitobida "Omonatga xiyonat" nomli rivoyat berilgan. Unda bir kishi safarga chiqishdan oldin ichida ming tanga oltin bo'lgan xaltachani do'stiga omonat sifatida topshiradi. Do'sti esa omonatga xiyonat qilib, xaltani yashirinchalik ochadi va oltinlarni olib, o'rniga oddiy tangalar solib qo'yadi. Oradan o'n yil o'tgach, omonat egasi safardan qaytib keladi va xaltachani qaytarib oladi. Xaltani ochgach, undagi oltinlar o'rniga tangalar borligini ko'rib hayratga tushadi. Do'sti esa bu aybni inkor etadi. Shundan so'ng omonat egasi shahar qozisiga murojaat qiladi. Aqlli qozi tangalarning zarb qilingan yillarini tekshirib ko'radi va ular yaqinda zarb qilinganini aniqlaydi. Natijada xiyonat qilgan do'st sharmanda bo'lib, qilgan aybini tan oladi. Qozi oltinlarni egasiga qaytarib beradi va xiyonat qilgan odam jazo sifatida sharmanda qilinadi.

Mazkur rivoyat orqali halollik, sadoqat va omonatga xiyonat qilmaslik kabi muhim axloqiy g'oyalar ilgari suriladi. O'qituvchi ushbu rivoyatni o'quvchilarga o'rgatish orqali ularda do'stlik, sadoqat, halollik va rostgo'ylik kabi ijobiy fazilatlarni shakllantirishi mumkin. Shuningdek,

rivoyat orqali yolgʻonning umri qisqa ekanligi, yolgʻonchi inson hech qachon hurmat qozona olmasligi haqidagi tushunchalarni oʻquvchilar ongiga singdirish mumkin.

Rivoyatda keltirilgan omonat tushunchasini oʻquvchilar hayotiga yaqin misollar bilan tushuntirish ham muhimdir. Masalan, oʻquvchilar birovdan oʻqish uchun olgan kitobni ham omonat sifatida qabul qilishlari kerakligi taʼkidlanadi. Agar kitobni qanday holatda olgan boʻlsalar, shunday holda egasiga qaytarishlari zarurligi tushuntiriladi. Bu orqali oʻquvchilarda kitobga nisbatan hurmat va eʼtibor shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, rivoyatlar xalqning tarixiy xotirasi, axloqiy qadriyatlari va eʼtiqodlarini saqlagan bebaho maʼnaviy meros hisoblanadi. Ular nafaqat oʻtmishni yoritadi, balki yosh avlodni vatanparvarlik, ezgulik va sabr-toqat ruhida tarbiyalaydi. Rivoyatlar insoniylik, axloq, diniy va ijtimoiy qadriyatlarni oʻzida mujassam etgan boʻlib, jamiyatning maʼnaviy rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bois rivoyatlarni oʻrganish, asrab-avaylash va taʼlim jarayonida keng qoʻllash har bir avlodning muhim vazifalaridan biridir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Aydarova U. *Oʻqish savodxonligi. 4-sinf uchun darslik*. 1-qism. – Toshkent: Edutainment, 2023. – 4–5-b.
2. Saidov U., Abdullayeva A. *Badiiy asar tahlili asoslari*. – Toshkent.
3. Nishonova Z. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*.
4. Jalolov Gʻ. *Adabiyot oʻqitish metodikasi*. – Toshkent.
5. www.ziyonet.u